

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O'zFA V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI
MATEMATIKA INSTITUTI
O'ZBEKISTON MATEMATIKA JAMIYATI

U O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand Davlat universiteti talabalariga dars berish jarayonida o'zining hisoblash matematikasiga oid darsliklarini mohir pedagog va sohaning yetuk mutaxassisi sifatida maromiga yetkazdi.

Shuni iftixor bilan ta'kidlash lozimki, ushbu darsliklar sifat jihatidan dunyoning yetuk universitetlarida tan olinib, foydalanilayotgan adabiyotlar turkumiga mansubdir.

Uning Riman dzeta funksiyasi va Dirixlening bo'luvchilar muammosiga doir ilmiy izlanishlarining natijalari xorijlik mutaxassislarda katta qiziqish uyg'otdi.

Olim 160 dan ortiq ilmiy va 50 dan ortiq ilmiy-ommabop ishlar muallifidir. Xorijning nufuzli nashrlarida 50 ga yaqin ilmiy maqolalari chop etilgan. M.I. Isroilovning ilmiy salohiyati xalqaro doiralarda tan olinib, 1972-yildan boshlab Amerika matematika jamiyatiga a'zo va "Mathematical Reviews" xalqaro jurnalining eksperti bo'ldi. Yurtimizda mazkur fanni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadida M.I. Isroilov 1967 - 1995-yillarda O'zFA Matematika va Kibernetika institutlarida "Sonlar nazariyasi metodlarini hisoblash matematikasiga tatbiqlari" bo'yicha ilmiy seminarning asoschisi va rahbari bo'ldi. 1995-yildan boshlab Samarqand Davlat universitetida "Hisoblash matematikasi va matematikaning dolzarb muammolari" nomli yangi ilmiy seminar tashkil etdi.

Yetuk olim, mashhur pedagog, talantli tashkilotchi, professor Ma'ruf Isroilovich Isroilov ilm-fan rivoji yo'lida katta mehnat qilgan fidoyi inson, betakror olim...

Biz yuqorida uning fazilatlarini qisqacha qayd etdik xolos. Zero, bu insonga ushbu e'tiroflarimiz kanga o'xshab tuyuladi. O'z shogirdlariga mehribon otadek, mutafakkir inson yanglig' mehr-muruvvat ko'rsata oladigan, ayni vaqtda nasihat-u o'gitlar bera oladigan bag'ri keng, donishmand ustoz edilar.




**"HISOBLASH MODELLARI VA
TEXNOLOGIYALARI (CMT2024)"**

**professor M.I. Isroilov tavalludining 90 yilligiga
bag'ishlangan III xalqaro seminari**

TAKLIFNOMA-DASTUR

Toshkent 2024



Hurmatli

Sizni, **2024 yil 27-aprel** kuni **soat 10:00** da Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti va O'zRFA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti, O'zbekiston matematika jamiyati "Hisoblash modellari va texnologiyalari (CMT-2024)" mavzusidagi fizika matematika fanlari doktori, professor M.I.Isroilov tavalludining 90 yilligiga bag'ishlangan III xalqaro seminarga taklif etamiz.

Manzil: O'zMU Axborot-resurs markazining katta zali, Bosh bino, 1-qavat

Onlayn Zoom manzili: Konferensiya identifikatori: 816 084 2298

Parol: 12345

DASTUR

Asosiy ma'ruzalar. 10.00-13.00.

Kirish so'zi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri K.A.Sharipov,

O'zbekiston Milliy Universiteti rektori I.U.Madjidov,

O'zbekiston qaxramoni, akademik Sh.A.Ayupov

Moderator: Professor Aripov M.M.

- **10:30-10:45** professor M.I.Isroilovning hayoti haqida film
- **10:45-11:15** professor Eshquvvatov Z., Allakov I. – M.I.Isroilovning ilmiy ishlari
- **11:15-11:30** professor Boykov I.V. – Gipersingulyar integrallarni hisoblashning taqribiy metodlari
- **11:30-11:45** professor Qodirov O.A. – Murakkab avtomatik sistemalarni tadqiq etishda modellashtirishning dekompozitsion metodlari
- **11:45-12:00** professor Hayotov A. R., professor Shodimetov X.M. – Gilbert fazolarda funktsionallarning va operatorlarning optimal yaqinlashishi
- **12:00-12:30** professor Rasulov A.S. – Moliyaviy masalalarni yechishda Monte Karlo metodlarini qo'llash
- **12:30-12:45** professor Alov R.D. – Hisoblash matematikasining istiqbolli yo'nalishlari
- **12:45-13:00** professor Aripov M.M. – Hisoblash metodlari kitobi taqdimoti
- **13:00-14:00** Tanaffus

Parallel sho'balalar. 14:00-17:00

- 1.Moderator dotsent Xudoyberganov M.O'. – «Hisoblash metodlari» (Ma'ruzalar o'tkazilish joyi: O'zMU, Hisoblash matematikasi va axborot tizimlari kafedras);
- 2.Moderator professor Rasulov A.S.- «Monte Karlo metodlari»- (Ma'ruzalar o'tkazilish joyi: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti);
- 3.Moderator professor Shodimetov X.M.- «Kubatur formulalar» (Ma'ruzalar o'tkazilish joyi: O'zFA , V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti);
- 4.Moderator professor Matyoqubov A.S.- «Matematik modellashtirish» (Ma'ruzalar o'tkazilish joyi: O'zMU, Amaliy matematika va kompyuter tahlili kafedras);
- 5.Moderator professor Madraximov Sh.F.- «Sun'iy intellekt» (Ma'ruzalar o'tkazilish joyi: O'zMU, Sun'iy intellekt kafedras);
- 6.Moderator dotsent Boltaev Sh.- «Axborot xavfsizligi» (Ma'ruzalar o'tkazilish joyi: O'zMU, Axborot xavfsizligi kafedras);

MA'RUF ISROILOVICH ISROILOV (27.04.1934 - 29.08.2010)

Atoqli olim, fizika-matematika fanlari doktori, professor, sonlar nazariyasi va hisoblash matematikasi bo'yicha mamlakatimizdagi ilmiy maktablarning tashkilotchisi va rahbarlaridan biri bo'lgan Ma'ruf Isroilovich Isroilovning hayoti va ilmiy faoliyati sonlar nazariyasi va hisoblash matematikasi fanlarining noma'lum qirralarini o'rganish, ularni yoshlarga o'rgatish hamda hayotga tatbiq etishga bag'ishlangan.

Olimning dastlabki ilmiy ishi "Hadlari tez o'suvchi yig'indilar uchun Tarri muammosi va uning ergodik yig'indilarga tatbiqi" mavzusida bo'lib, bu ilmiy asar o'z davrida mazkur soha rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Ma'ruf Isroilov yosh bo'lishiga qaramay mazkur tadqiqotni muvaffaqiyatli yakunladi va bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadqiqotlarning yo'nalishini kengaytirdi. M.I. Isroilov aspiranturani tugatgach, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Kibernetika va V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutlarida ilmiy faoliyatini davom ettirdi.

M.I. Isroilov Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining "Hisoblash matematikasi" kafedrasida uzoq yillar davomida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borib, talabalarga ma'ruzalar o'qidi. Ularning bitiruv ishlariga rahbarlik qildi. U iqtidorli talabalarni topib, ilmiy izlanishlar olib borishga jalb qildi. Aynan shu o'quv dargohida o'zining ko'plab shogirdlarini topdi va ularni ilmiy ish bilan shug'ullanishi uchun O'zbekiston Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlariga jalb qildi.

Professor M.I. Isroilov respublikamizda hisoblash matematikasi sohasi bo'yicha ilmiy maktab yaratishida ko'p yillar davomida olib borgan ilmiy-pedagogik faoliyati asos bo'ldi. Uning bevosita rahbarligida 17 nafar nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari hisoblash matematikasi hamda sonlar nazariyasi sohalarida bo'yicha muvaffaqiyatli himoya qilindi.

Amaliy matematikaning sir-asrorlarini o'rganishdagi uzoq yillik mashaqqatli mehnati natijasi o'laroq M.I. Isroilov hisoblash matematikasidan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun o'zbek tilida yagona bo'lgan "Hisoblash metodlari" (I-II qismlar) va "Sonlar nazariyasi" (A. Soleyev ham muallifligida) darsliklar yaratdi. Ayni paytda mazkur kitoblar muntazam nashr etib kelinmoqda. E'tiborli jihati shundaki, professor M.I. Isroilov sohada yuksak ilmiy natijalarga erishibgina qolmay, uzoq yillar fanidagi yangiliklarni yosh avlodga yetkazish, mamlakatimiz uchun yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashni o'zi uchun oliy maqsad, deb bildi.